

JA'HON TA'LIMINI RIVOJLANISHIDA XALQARO TASHKILOTLAR YUNESCO, BMT, UNICEF KABI TASHKILOTLAR VA ULARNING FAOLIYATI MASALALARI

Karimova Lola Raxmanovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 16 -maktab

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

E-mail: karimovalola@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jahon ta'limi taraqqiyoti fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati bosqichlari. YuNESCO tashkilotining ta'lim sohasidagi faoliyatiga oid fikr, mulohazalar keltirilgan.

Tayanch iboralar: xalqaro tashkilotlar, BMT va SDG 4, UNESCO, Education 2030, UNICEF, ECD, Jahon Banki, Learning for All, OECD, PISA, XMT, kasbiy ta'lim, Tinchlik Korpusi, ko'ngillilar, inkluziv ta'lim, global fuqarolik ta'limi (GCED).

Abstract. This article discusses the stages of international organizations and their activities in the development of the discipline of World Education Development. Opinions and comments on the activities of UNESCO in the field of education are presented.

Keywords: international organizations, UN and SDG 4, UNESCO, Education 2030, UNICEF, ECD, World Bank, Learning for All, OECD, PISA, ILO, vocational education, Peace Corps, volunteers, inclusive education, global citizenship education (GCED).

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы деятельности международных организаций и их роль в развитии дисциплины «Развитие мирового образования». Представлены мнения и комментарии о деятельности ЮНЕСКО в области образования.

Ключевые слова: международные организации, ООН и ЦУР 4, ЮНЕСКО, Образование 2030, ЮНИСЕФ, РРР, Всемирный банк, Обучение для всех, ОЭСР, PISA, МОТ, профессиональное образование, Корпус мира, волонтеры, инклюзивное образование, образование в области глобального гражданства (GCED)

Dunyo ta'lim tizimida har doim muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yish, ijtimoiy-iqtisodiy yo'lanishlarda qandaydir xalqaro tashkilotlar qoshida birlashish ehtiyoji ham aynan ikkinchi jahon urushidan keyin hayotiy zaruratga aylandi. Shu sababdan ham ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro hamkorlik kuchayib, ta'lim global muammo sifatida e'tirof etila boshlanganini ko'rishimiz mumkin. Sababi bunday xalqaro

tashkilotlar ta'limga inson huquqi, iqtisodiy rivoj va barqarorlik vositasi sifatida qaraydi va qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda asosiy xalqaro tashkilotlar sifatida – BMT, UNESCO, UNICEF, Jahon Banki va OECD kabi tashkilotlar nomi va faoliyati bilan atroflicha tanishmiz desak xato bo'lmaydi.




1.1-rasm. Xalqaro tashkilotlar BMT,

UNICEF, Jahon Banki, UNESCO emblemalari

OECD,

Albatta bugungi kunga kelib ushbu xalqaro tashkilotlarning a'zo mamlakatlari soni, ular amalga oshirayotgan ishlar hamda loyihalarning ko'lami va amaliy natijalari maqtashga arzigulik holatda deyish mumkin.

Mazkur xalqaro tashkilotlarning faoliyati tarixiy jihatdan odatda uch bosqichga bo'linadi:



1.2-rasm. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining tarixiy bosqichlari

Xalqaro tashkilotlar orasida ayniqsa BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)ning o'rni va salmog'i nihoyatda yuqori. BMT 1945-yilda tashkil etilgan bo'lib, ta'limga tinchlik va rivojlanishning asosiy vositasi sifatida qaraydigan tashkilot hisoblanadi. Uning ta'lim faoliyati bosqichlarini quyidagicha ko'rishimiz mumkin:

1. Paydo bo'lish bosqichi (1940–1970 yillar): BMTning sayi harakatlari bilan 1948-yilda “Inson huquqlari” Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinadi va ushbu xalqaro hujjatda “*ta'lim hamma uchun majburiy va bepul bo'lishi kerak ekanligi*” belgilab qo'yiladi. Bu ta'limni global huquq sifatida asoslab bergan BMT tomonidan tamal toshi qo'yilgan muhim siyosiy, huquqiy hujjat hisoblanadi.

2. Global strategiyalar bosqichi (1970–2000 yillar): Ushbu yillarda mamlakatlar tomonidan ta'limga doir qator strategiyalar va maqsadlar belgilab olingan. 1990-yilda Tailand (Jomtien)da “*Hamma uchun ta'lim*” deklaratsiyasi qabul qilinadi va bu ta'limni rivojlanayotgan mamlakatlarda kengaytirishga qaratilgan o'ta muhim deklaratsiya hisoblanadi. 2000-yilda Dakar Forumida ham mamlakatlar uchun 2015-yilgacha 6 ta umumiy maqsad belgilab olingan bo'lib, undagi asosiy maqsadlardan biri “boshlang'ich ta'limni bepul va majburiy qilish” ekanligi keltirilgan.

3. Zamonaviy bosqich (2000 yildan hozirgacha): 2015-yilda *Incheon Deklaratsiyasi* orqali *Education 2030 Agenda* qabul qilingan, bu BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) ning 4-maqsadi – sifatli ta'limni ta'minlashga asoslangan hujjat hisoblanadi. 2021-yilda “*Transforming Education Summit*” nomli sammit o'tkazilgan hamda unda ta'limni raqamli va inkluziv qilish masalalari muhokama etilgan edi. Bugungi kunda ta'lim tizimida inkluziv ta'lim imkoniyatlaridan respublikamizda ham alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va imkoniyati cheklangan insonlar tomonidan keng foydalanilayotganligi hech birimizga sir emas. Bundan tashqari BMTning *Global Citizenship Education (GCED)* dasturi 2015-yildan boshlab o'quvchilarda global fuqarolik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan muhim dastur sifatida faoliyat yuritmoqda. BMTning sayi harakatlari natijada, ta'lim savodxonligi global miqyosda 50% dan 75% ga oshganligi aniqlangan.

Xalqaro tashkilotlar orasida o'ziga xos yo'nalish va maqsadlarni targ'ib etuvchi tashkilotlardan biri UNESCO hisoblanadi. UNESCO Birlashgan Millatlar Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti – bo'lib, 1945-1946 yillarda BMTning maxsus agentligi sifatida tashkil etilgan, uning asosiy maqsadi ta'lim, fan va madaniyat orqali tinchlikni ta'minlash hisoblanadi. UNESCOning ta'limga doir samarali faoliyatini quyidagi bosqichlarda ko'rishimiz mumkin:

1. UNESCOning tashkil topish bosqichi (1940-1970 yillar): UNESCO 1945-yilda tashkil etilganidan so'ng, asosiy e'tiborni ta'limni rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llab-quvvatlashga qaratgan. 1970-yilda UNESCO tashkiloti tomonidan “*Ta'lim rivoji xalqaro komissiyasi*” tuzilgan bo'lib, u ta'limni hayotiy holatda o'rganish, xato va kamchiliklarni aniqlash, ta'limdagi muammolarni bartaraf etish masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiya sifatida faoliyat yuritishi belgilab olingan.

2. UNESCOning global strategiyalar bosqichi (1970–2000 yillar): UNESCO bu davrda (1990-yillar) “*Education for Sustainable Development*” (ESD) konsepsiyasini ishlab chiqqan. Mazkur konsepsiya BMT va boshqa agentliklar bilan hamkorlikda

ishlab chiqilgan bo'lib, hamma uchun ta'limni ta'minlashga qaratilgan muhim dastur hisoblanadi. 2000-yilda *“Dakar Framework for Action”* aktini qabul qilishga erishgan va bu hujjat ham aynan hamma uchun teng huquqli sifatli ta'lim olish faoliyatini ta'minlashga qaratilgan hujjat hisoblanadi.

3. UNESCOning zamonaviy taraqqiyot bosqichi (2000 yildan hozirgacha): 2015-yilda SDG 4 ni boshqarish vazifasini belgilab olgan.

“SDG 4” bu - sifatli ta'lim, inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va ta'limdagi gender va mulkiy tengsizlikni bartaraf etish hamda 2030-yilgacha texnik, kasbiy va oliy ta'limdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida hamma uchun umrbod ta'lim imkoniyatlarini rag'batlantirishga qaratilgan dastur hisoblanadi.

“SDG 4” dasturida ta'lim qashshoqlikning ayanchli siklini buzishga yordam beradigan, boshqa rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim katalizator sifatida qaraladi va odamlarga o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishiga imkon beradi degan g'oya ilgari suriladi.

SDG 4 ning asosiy jihatlari va maqsadlari 4 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi. Bular:



1.3-rasm. SDG 4 dasturining asosiy maqsadlari

Shuningdek UNESCO *“Education-2030 Agenda”* orqali ta'lim tizimlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratgan. 2020-yilda *“Global Education Coalition”* tuzilgan, COVID-19 pandemiyasi davrida 190 ta mamlakatda ta'limni qo'llab-quvvatlash amalga oshirilgan. UNESCOning 2020-yildan boshlab alohida o'qituvchilar uchun kompaniyasi faoliyat yuritayotgan bo'lib, mazkur kompaniya o'qituvchilarni AI (aqilli intellekt) va global muammolarga tayyorlashga qaratilgan. Bundan tashqari UNESCO Afrikada ta'limni rivojlantirish ishlarida eng yetakchi

ko'ngilli tashkilot sifatida faoliyat olib borib, 99% savodxonlikka erishgan mamlakatlarga amaliy jihatdan yordam berib kelmoqda.

Biz Jahon bankini ko'proq moliyaviy tashkilot sifatida ko'rishga odatlanib qolganmiz, biroq mazkur bank ta'lim sektorida juda ulkan va salmoqli faoliyatni amalga oshirib kelmoqda. Jahon banki 1944-yilda tashkil etilgan bo'lib, moliyaviy ish tuzilmasidan tashqari u ta'limni iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida ko'ruvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. Jahon banki tomonidan 1940-1970 yillar oralig'ida xalqaro tashkilot sifatida tashkil topish va faoliyatini yo'lga qo'yish bosqichi bo'lgan bo'lishiga qaramay, 1960-yillardan boshlab ta'lim loyihalarini moliyalashtirish ishlari boshlab yuborilgan. Ushbu loyihalarda asosan rivojlanayotgan va yordamga muhtoj mamlakatlarda maktab infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash prinsipi amalga oshirilgan.

1970-2000 yillar davomida ham Jahon banki tomonidan ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Misol uchun 1995-yilda Jahon banki tomonidan "Priorities and Strategies for Education" hujjati tayyorlanib, unda ta'limni iqtisodiy o'sishiga erishish va qashshoqlikni kamaytirish masalalari yoritilgan. Mazkur bank tomonidan birgina 1998-2011 yillar oralig'ida faqat ta'lim maqsadlari uchun \$26.5 mlrd sarmoya sarflangan. Mazkur ko'p summali loyihalar natijasida 85 mamlakatda 305 mln odamga amaliy yordam berilgan. 2000-yildan hozirgacha bo'lgan davrda Jahon banki o'z maqsad va strategiyalariga yanada yangicha ruh berib, 2011-yilda "learning outcomes" tamoyiliga o'tgan. 2020-yilda "Learning for All" strategiyasi qabul qilgan, 2022-2024 yillarda ekstremal ob-havo tufayli 400 mln o'quvchi maktab yopilishiga qarshi loyihalar amalga oshirilgan.

OECD bu - Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti bo'lib u 1961-yilda tashkil etilgan. Tashkilot ta'limni global raqobatbardoshlik vositasi sifatida qabul qiladi. Ushbu tashkilot 1960-yilda birinchi o'quvchi yutuqlarini baholash tadqiqotini o'tkazgan, matematika va o'qish savodxonligi darajasini 12 mamlakatda sinovdan o'tkazgan. 2000 yilda "Programme for International Student Assessment" ya'ni PISA programmasini ishga tushirgan. Mazkur dastur orqali 15 yoshli o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholashni yo'lga qo'ygan. Ushbu sayi harakatlari orqali OECD ta'lim siyosatini shakllantirishda global standart yaratdi desak xato bo'lmaydi. Hozirgi kunda PISA tadqiqoti kengaytirilib, 90 dan ortiq mamlakatga yetkazilgan, "equity" ya'ni (tenglik) ga e'tibor qaratgan. 2018 yilda Global Competences ni qo'shgan, o'quvchilarda global ko'nikmalarni baholaydi. OECD ta'lim tizimlarini raqamli va barqaror qilishda yetakchi.

Bu tashkilotlar ta'limni global kun tartibiga chiqarib, millionlab odamlarning hayotini o'zgartirdi. Ularning hamkorligi ko'p sonli insonlar uchun foydali bo'lgan bo'lib, masalan, 2021 yilda UNESCO, UNICEF va Jahon Bankining "Mission: Recovering Education" loyihasi, pandemiya ta'sirini kamaytirgan.

Bugungi kunda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida yana bir yetakchi tashkilotlardan biri "Birlashgan millatlar bolalar jamg'armasi" UNICEF hisoblanadi. UNICEF 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, u dastlab urushdan zarar ko'rgan bolalarga yordam uchun tashkil etilgan edi. Ammo keyinchalik mazkur jamg'arma tomonidan ham ta'limga katta e'tibor qaratila boshlangan. UNICEFning ta'limga ta'siri va samarali faoliyatini quyidagi bosqichlarda ko'rib o'tishimiz mumkin:

1. UNICEFning tashkil topish bosqichi (1940-1970 yillar): UNICEF 1950-yillardan bolalar ta'limiga e'tibor qaratgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda maktab qurilishiga yordam berish borasida juda ko'plab salmoqli ishlatni amalga oshirgan. Bundan tashqari UNICEFning sayi harakatlari natijasida bolalarning barvaqt o'limi darajasi ikki baravar kamaytirishga erishilgan. Dunyo mamlakatlarida maktabda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan bolalarning qamrab olinish darajasi 50% dan 75% ga mazkur jamg'arma sayi harakati natijasida oshgan.

2. UNICEFning global strategiyalar bosqichi (1970–2000 yillar): UNICEF 1980-yillardan boshlab "Early childhood development" (ECD, Erta bolalikni rivojlantirish)ga e'tibor qaratishni boshlagan. Mazkur sayi harakat natijasida 0-8 yosh bolalar uchun kognitiv va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini joriy etilgan. 147 mamlakatda faol, ta'limni tenglik va inkluzivlikka asoslagan bo'lishi uchun sayi harakatlar amalga oshirilgan.

3. UNICEFning zamonaviy bosqich (2000 yildan hozirgacha): ushbu zamonaviy rivojlanish bosqichida UNICEF asosan favqulodda vaziyatlarda ta'limni ta'minlash masalasiga katta ahamiyat qaratmoqda. Misol uchun siyosiy va dininiy nizolar, tabiiy va ekologik ofatlar sharoitida ta'lim uzluksizligini ta'minlashni misol qilib ketirishimiz mumkin.



2.1-rasm. UNICEFning og'ir hududlardagi bolalar ta'limida ishtiroki

Bugungi kunga qadar UNICEFning sayi harakatlari bilan 600 mln bolalarning savodxonlik muammosini hal qilishga erishilgan. 2024-yilda UNICEF tomonidan "Global Annual Results Report" chiqarilgan bo'lib, unda iqlim o'zgarishi ta'sirida maktablar faoliyatining to'xtatilib, ta'limda uzulish bo'lishi muammolari muhokama etilgan. Shuningdek UNICEFning ECD dasturi 2021-yildan boshlab bolalar miyasini 1000 kun ichida rivojlantirishga qaratilgan intensiv ta'lim mazmunini amalga oshirmoqda.

MOT (XMT) bu - Xalqaro mehnat tashkiloti bo'lib, uning asosiy vazifasi - ijtimoiy va iqtisodiy adolatni ta'minlash orqali mehnat standartlarini o'rnatishdan iborat. Mehnat tashkiloti bo'lishiga qaramay ushbu tashkilot ta'lim sohasida texnik va kasbiy ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Tashkilot bu orqali ishchi kuchini global o'zgarishlarga moslashtirish va qo'llab quvvatlashni maqsad qilgan. Tashkilotning asosiy psinsiplari u ilgari surayotgan ta'lim va tayyorlash programmalarida o'z ifodasini topgan. Misol uchun "Kasbiy tayyorgarlik va hayot davomida o'rganish" tamoyili orqali XMT ish beruvchilarni ishchi kuchini qayta tayyorlash va ularning kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi. 2023-yilda Jahon banki, MOT va UNESCOning qo'shma tadqiqotida ishchi kuchini globallashtirish, texnologik taraqqiyot va demografik o'zgarishlarga moslashtirish masalalari tavsiya qilgan. XMT ning yana bir tamoyillaridan biri bu ishga asoslangan o'rganish bo'lib, bunda tashkilot ta'lim administratorlari va o'qituvchilari uchun maxsus qo'llanmalar ishlab chiqishni amalga oshirgan. Masalan, usta hunarmandlar uchun ish joyidagi o'rganish dasturlarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

XMTning 2025-yilgi hisobotida Janubi-Sharqiy Osiyoda XMT institutlarining sanoat talablariga javob berish darajalari tahlil qilingan. Shuningdek, "xalqaro standartlar" XMTning yana bir asosiy tamoyili bo'lib, unda bolalar mehnati, o'qituvchilar va mahalliy xalqlar huquqlariga oid masalalarga ahamiyat qaratiladi. 1964-yilda XMT UNESCO bilan birgalikda texnik va kasbiy ta'lim bo'yicha tavsiyalar chiqarish, bu ta'limni mehnat bozoriga moslashtirishni belgilaydigan mezonlarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Xulosa qilib aytgand hozirgi vaqtda XMT "Shaping Skills and Lifelong Learning for the Future of Work" dasturi orqali ta'lim ittifoqlarining texnologiyalardagi rolini kuchaytirish ustida ish olib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda XMT ta'lim-tarbiyani mehnat huquqlari va iqtisodiy rivojlanish bilan bog'laydi hamda shu orqali hayot va mehnat jarayonini professional va barqaror qilishga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahrir). – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. Ismoilov U.Sh. Jahon ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021..
3. OECD. Education at a Glance. – Paris: OECD Publishing, 2023.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO, 2022.
5. Smith J. Global Trends in Education Systems Development. PhD Dissertation. – University of London, 2020.

ELEKTRON VA NORMATIV MANBALAR

1. UNESCO Institute for Statistics. Education Data and Indicators.
2. World Bank. Education Sector Strategy.

3. OECD Education Database.
4. European Commission. Education and Training Monitor.
5. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali
6. ziyonet.uz
7. <http://www.voppsy.ru>
8. www.tdpu.uz
9. www.pedagog.uz.